

1. Foydali qazilmalar



Siz qanday foydali qazilmalarni bilasiz? Ulardan qayerlarda foydalanish mumkin?

Foydali qazilmalar tabiiy materiallar bo'lib, inson ularni yer ostidan qazib oladi va o'z ehtiyojlari uchun ishlataladi.

Odatda, foydali qazilmalar uch guruhga bo'linadi:

- **Qazilma yoqilg'ilar** – yonilg'i tayyorlanadigan materiallar. Bularga neft, tabiiy gaz, torf, toshko'mir kabilar kiradi.
- **Rudali qazilmalar** – tarkibida metall bor materiallar: temir rudasi, mis rudasi. Kerakli metallni olish uchun, odatda, ruda yuqori haroratda qizdirilib, suyuq holatga keltiriladi, ya'ni eritiladi.
- **Noruda qazilmalar** – marmar, qum, granit kabi dastlabki qayta ishlanmaydigan materiallar.

Yer qa'rida inson uchun kerakli materiallar katta miqdorda mavjud bo'lib, ular yerning turli joylarida turli chuqurlikda joylashgan. Bir turdag'i foydali qazilmalar joylashgan hudud **kon** deb ataladi. Mamlakatning boyligi, ko'pincha, uning hududida qanday foydali qazilmalar borligi va ularning miqdoriga bog'liq.



Nomi yashirilgan foydali qazilmalarni toping.

2. Foydali qazilmalar qanday paydo bo'lgan?

Qazilma yoqilg'ilar, asosan, organik moddalardan, ya'ni jonzot yoki o'simliklarning qoldiqlaridan paydo bo'lgan. Masalan, toshko'mir qadimgi o'simliklarning qoldiqlaridir. Olimlar ko'mir qatlamlarida topilgan qadimgi o'simliklarning izlariga qarab, shunday xulosaga kelishgan. Million yillar avval bu o'simliklar nobud bo'lib, suv havzalarining tubida to'plangan. Vaqt o'tib, ular bir-birining ustiga taxlana borgan, keyinchalik ularning ustini qum yoki loy qoplagan. Yer ostida havo bo'limganligi sababli, ular suv bosimi ostida siqilib, asta-sekin ko'mir qatlamiga aylangan.



Neft Yer yuzida 250–300 million yillar avval yashagan jonzot va o'simliklarning qoldiqlaridan hosil bo'lgan. U paylartda sayyoramizdag'i iqlim iliq nam bo'lgan. Jonzot va o'simliklarning qoldiqlari okean tubiga tushib, usti loy va cho'kindi jinslar bilan qoplangan. Ko'mirda bo'lgani kabi, ular ham suv bosimi va yuqori harorat ostida neft va tabiiy gazga aylangan. Neft va gaz konlari doim yonma-yon joylashgan bo'ladi.



3. Foydali qazilmalar qanday qazib olinadi?

Foydali qazilmalar turiga qarab, karyerlarda yoki quduqlardan qazib olinadi.

Karyer yerdagi ulkan o'yilgan yoki kovlangan joy bo'lib, bu yerdan ekskavatorlar yordamida foydali qazilmalar kovlab olinadi va ulkan yuk mashinalarida tashib ketiladi. Chuqurlar shunday kovlanadiki, ularning yonbag'rida yuqoriga ko'tarilib boriladigan spiral yo'l hosil qilinadi. Yuk mashinalari bu yo'ldan yurib, kovlab olingan qazilma materiallarni manziliga yetkazadi.

Karyerlarda yer sathiga yaqin joylashgan foydali qazilmalar, masalan, qum, ko'mir va turli rudalar qazib olinadi.



Agar foydali qazilmalar ancha chuqurda joylashgan bo'lsa, ularni qazib olish uchun shaxtalar kovlanadi. **Shaxta** – bu quduqqa o'xshash yerdagi uzun, vertikal chuqr. Bu quduqdan turli tomonga yerosti tonnellari kovlangan bo'lib, bu tonnellarda ishchilar toshko'mir yoki yonuvchan slanes kabi foydali qazilmalarni kovlab olishadi.



1. Qanday foydali qazilmalar nomini aytib bera olasiz?
2. Foydali qazilmalar qanday paydo bo'lgan?



Uyda qanday foydali qazilmalarni uchratishimiz mumkin? Ulardan qanday buyumlar yasalgan? Biz bu qazilmalardan qanday foydalanamiz?